



KAR BOLALAR NUTQ O'STIRISH DARSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Mamarajabova Munira Abdumo'min qizi

Sirtqi (Maxsus sirtqi) Defektologiya yo'nalishi talabasi



Annotation

Language - is a tool of thinking and a means of communication. Oral speech is a means of communication, thinking and comprehension for the child, and the auditory analyzer plays a leading role in its formation. This article describes the stages of corrective work in the development of speech in children with hearing impairments, methods of shaping speech in communicative activities.

Key words:

Speech, development lesson, auditory perception, pronunciation skills, correction, pedagogue.

Til- ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Nutq esa insonning til vositasi orqali aloqa hosil qilishidir ya'ni til tarixiy taraqqiyot davomida insonni nutq orqali aloqa bog'lashi jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan. Normada rivojlanayotgan bola nutqi tashqi olam bilan bog'langan holatda kommunikativ, bilish hamda axloqiy fazilatlarni tartibga solish kabi funksiyalarini bajaradi. Inson til orqali o'z fikrini bayon qiladi hamda boshqalarning fikrini anglaydi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik ruhda tarbiyalash faoliyati bolani nutqqa o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bola og'zaki nutq orqali atrof muhitdagi voqeа-hodisa, tabiat hamda jamiyat qonuniyatlarini anglay boshlaydi. Ya'ni bolada normal nutqning shakllanishi aqliy va ruhiy jihatdan kamol topishiga hamda madaniy saviyasining oshishiga sabab bo'ladi. Og'zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida amalga oshiriladi, atrofdagi insonlar bilan muloqot jarayonida rivojlanib boradi. Eshitish idroki yordamida 5-6 yoshli bola tovushlarning to'g'ri talaffuzi, lug'at boyligi va gapning Grammatik qoidalarini amaliy tarzda egallaydi. Kar bolalar bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofidagilar nutqini eshitmaydi. Kar bolalar maxsus o'quv va tarbiya muassasalariga borganda butun o'quv faoliyati nutq o'stirish jarayoniga bilan bog'langan holatda olib boriladi. Nutq o'stirish darslarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion ishlar rejalashtiriladi, darslarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi. "Ona tili- har qanday tarqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi". - deb ta'kidlagan edi K.D.Ushinskiy. Dars jarayonlarida berilgan materiallarni tez va puxta o'zlashtirib olish , tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Og'zaki nutqning karlar hayotida, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida juda ham muhim ahamiyatga egaligini inobatga olgan holda, shuni aytish kerakki, karlarni talaffuzga o'rgatishning birinchi va asosiy vazifasi ularga og'zaki nutqining iloji boricha tushunarligini ta'minlab berishdan iboratdir. Kar bolalar nutq

o'stirish darslarining asosiy maqsadi – talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish, takomillashtirish va avtomatizatsiya qilishdan iborat. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish quyida berilgan bosqichma-bosqichli korreksion ish faoliyatida amalga oshiriladi.

Birinchi vazifa Eshitish qobiliyatini va uning asosiy komponentlarini: eshituv diqqatini (eshitish orqali u yoki bu tovushni va uning yo'nalishini aniqlash malakasi), fonematik eshitish, temp va ritmni idrok etish qobiliyatini tarbiyalash.

Kar bolalar nutqini o'stirishning boshlang'ich davrida eshitish diqqatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda kar bolalar ovoz o'zgarishlariga nisbatan o'zlarining javob reaksiyasini qaytarishishlari (baland tonda yuzning mimik holatini o'zgartirish, past tonda jilmayib qo'yish), ovoz tempi (o'ziga yaqin insonlar ovozini farqlay olish), so'zning ritmik holatini (so'zning tovush tarkibi va bo'g'inlar miqdori) to'g'ri idrok etishi hamda nutq tempini boshqara olish qobiliyatini shakllantirish lozim. Nutq o'stirishning keyingi bosqichida fonematik eshituv ya'ni bir tovushni ikkinchi tovushdan aniq farqlay olish (ajrata olish) qobiliyati rivojlantiriladi. Normada rivojlangan eshituv diqqati tovushlarni aniq, ravshan va to'g'ri talaffuz qilinishini ta'minlaydi. Nutq eshitishni rivojlantirish artikulyatsion apparat a'zolarining harakati jarayonida vujudga keladigan sezgining rivojlanishi bilan mustahkam bog'liqdir. Kar bolalarni eshitish idrokini rivojlantirish jarayonida jarangdorligi jihatdan yaqin hamda uzoq bo'lgan tovushlarni farqlashga o'rgatish lozim. Masalan, pedagog turli tovush birikmalarini (ba-ba; quv-quv; chiq-chiq) talaffuz etadi, bolalar esa nimaning ovozini eshitayotganligini aytadilar. Ushbu jarayonda pedagog kar bolalar diqqatini bir xil tovush, bo'g'in, so'z va jumlalarni baland va past, tez hamda sekin talaffuz etilishiga qaratmog'i shart.

Ikkinci vazifa artikulatsiya apparatini rivojlantirish.

Tovushlarni talaffuz qilishda nutq a'zolarining to'g'ri holati va me'yoriy harakati artikulyatsiya deb ataladi. Artikulyatsiya a'zolari tuzilishining buzulishi (til yuganchasining kaltaligi, prikuslar, tanglayning haqqan ziyod yuqori yoki past joylashuvi) hamda Artikulyatsiya apparati harakatining takomillashmaganligi (til, lablar va pastki jag'ning kam harkatchanligi) tovushlar talaffuzning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunda pedagog quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- Tilning harakatchanligini rivojlantirish
- Lablar harakatchanligini rivojlantirish
- Pastki jag'ni ma'lum holatda ushlab turishni rivojlantirish.

Artikulatsion mashqlar uchun topshiriqlarni to'g'ri tanlash va uni nutq a'zolarida shakllantirish yaxshi samara beradi. Harakat ko'nikmalarini mustahkamlash, yanada mukammal bajarish maqsadida artikulatsion mashqlarni har kuni 4 - 5 marta o'tkazish tavsiya etiladi. Bolalarga 2 - 3 tadan ortiq mashq tavsiya etilmaydi. Chunki nutq a'zolari, ya'ni til, lablar zo'riqishi mumkin. Asta-sekinlik bilan bu zo'riqish yo'qolib, harakatlar erkin va muvofiqlasha boradi. Tayyorlov davrida ikki xil umumiy rivojlantiruvchi mashqlar namunadagidek bajariladi. Harakatsiz mashqlarda nutq a'zolarini ma'lum holatda 6-10 soniya davomida saqlab turish talab qilinadi, harakatli mashqlar esa, harakatni 6 -8 marta bir me'yorda takrorlashni hamda ularning bir holatdan ikkinchi holatga tekis o'tishini talab etadi.

Uchinchi vazifa nafas olish va chiqarishni rivojlantirish ustida ishslash.

O'pkadan chiqayotgan havo oqimining normal holatda oqib o'tishi, nutq tovushlarini hosil qilishning manbai hisoblanadi. Nutqiy nafas ovozni tinglovchiga yetkazish hamda ovoz kuchini hosil qilish vositasidir. Normada rivojlantirilgan nutqiy nafas so'zlarni yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holatda talaffuz qilish imkonini beradi. So'zlashuv jarayonida nafas olish va chiqarish nutqsiz nafas olishdan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda burun orqali olinadigan hamda chiqariladigan havo oqimining davomiyligi deyarli bir xilda bo'ladi. So'zlashuv jarayonida nafas og'iz orqali olinib, nafas olish tezlashadi, nafas chiqarish esa sekinlashadi ya'ni bir tekisda nafas chiqariladi. To'g'ri nafas olish va chiqarish tovushlarning me'yoriy

talaffuzini ta'minlaydi, nutqiy pauzaga rioya qilish nutqning intonatsion ifodalilagini ta'minlaydi. Nafas chiqarishning qisqa bo'lishi bolalarni mantiqiy pauzalarga amal qilmasdan, shoshilib gapirishga majbur qiladi. Shu sababli pedagog kar bolalar nutqiy nafasi ustida quyidagi korreksion ishlarni amalga oshirishi lozim.

- 1) maxsus o'yin mashqlaridan foydalanib, erkin, tekis, uzun havo oqimini hosil qilish;
- 2) tarbiyachi- pedagog nutqiga taqlid qilish orqali nafasdan to'g'ri, o'rinni foydalanishga (bir nafas chiqarishda uncha katta bo'limgan jumlalarni aytishga) o'rgatish.

To'rtinchi vazifa ovoz ustida ishslash.

Ovoz bu un paychalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Ovozning me'yoriy rivojlanishi nafas va artikulyatsiya apparatining hamkorlikda ishlashiga bog'liq. Yuqori nafas yo'llaridagi har xil kasalliklar, doimiy tumov va adenoidlar hamda ovoz paychalarining tarang bo'lishi, nutqning har doim baland bo'lishi, ayniqsa, havo sovuq vaqtarda baqirib gapirish, ovoz tonidan noto'g'ri foydalanish, bola yoshiga mos bo'limgan ovoz diapazonidan foydalanish (masalan, bolaning uzoq vaqtgacha kichkina bola nutqiga taqlid qilib yoki juda past ovozda gapirishi) ovoz buzilishlariga sabab bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda pedagog quyidagi vazifalar orqali ovozni rivojlantirishi kerak.

- 1) o'yin va o'yin mashqlarida ovozning asosiy sifatlari: kuchi va balandligini rivojlantirish;
- 2) bolalarni kuchanmasdan, turli vaziyatlarga qarab ovozdan to'g'ri foydalanishga (past-baland) o'rgatish.

Beshinchi vazifa ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish

Maktabgacha tarbiya yoshida bolalarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish eng qulay davr hisoblanadi. Me'yoriy tovush talaffuzi uchun nutq eshituv a'zolari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak, chunki bu jarayon o'z-o'zini nazorat qilishni hamda o'z ovozini boshqara olish malakasini hosil qilishni ta'minlaydi. Nutq apparatining nuqsonlari (qattiq va yumshoq tanglayning yorilishi, tishlar tuzilishining notekisligi, til osti yuganchasining kaltaligi va hokazolar), artikulyatsiya apparatining yetarli darajada harakatlanmasligi, fonematik eshituvning rivojlanmaganligi (bir tovushni ikkinchi bir tovushdan ajrata olmaslik) tovush talaffuzining buzilishiga olib keladi. O'z nutqiga nisbatan e'tiborsizlik bilan qarash (o'zining va boshqalarning nutqini tinglay olmaslik), eshitish qobiliyatining pasayishi, atrofdagilarning noto'g'ri nutqlari tovush talaffuzidagi nuqsonlarga sabab bo'lishi mumkin. Bolalar tomonidan tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish ayrim tovushlarni tashlab aytish, bir tovushni ikkinchi bir tovush bilan almashtirish, tovushni noaniq — buzib talaffuz etish hamda yozma nutq buzulishlari kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Tovushlarni me'yoriy talaffuz qilishga o'rgatishda pedagog quyidagi korreksion ishlarni amalga oshirishi lozim:

- 1) hamma tovushlarni so'zning boshida, o'rtasida va oxirida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish:
- 2) so'zlarni. tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish:
- 3) bola nutqidagi nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash va, zarur bo'lsa, o'z vaqtida maxsus bolalar muassasalariga yo'llash.

Ravon gapirish (diksiya) ustida ishslash

Normal nutq asoslarini nafasni to'g'ri taqsimlay bilish, har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va aniq diksiya (lotincha "diction"-talaffuz) ya'ni so'zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so'zlash malakasini egallah, adabiy talaffuz normalarini hosil qilish, fonematik eshitish idrokining (so'zlar tarkibidagi tovushlar va fonemalarni ajratish qobiliyati) rivojlanishi kabi eng muhim shartlar asosida egallah lozim. Ravon gapirishga o'rgatishda pedagog taqlid usuli yordamida jumlanı so'zlarga bo'lib, so'zlardagi barcha tovushlarni alohida anniq talaffuz ettirishi kerak. Bundan tashqari korreksion mashg'ulotlarda eshitish a'zolari hamda artikulyatsion apparati a'zolari harakatchanligini rivojlanishiga ta'sir etuvchi mashqlarni ham parallel ravishda olib borishi lozim. Bola rivojlanishining 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrida tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, atrofdagilar va o'z nutqini

nazorat qila olishi hamda bolada to'g'ri nutqiy nafas olish va chiqarishni rivojlantirish, artikulytsion apparat a'zolari harakatini takomillashtirish, eshitish idrokini rivojlantirish ravon gapirish (diksiya) jarayonining asosidir. Kar bolalar nutq o'stirish darslari boshqa fan darslaridan farq qiladi. Nutq o'stirish darslarini tashkil qilish va o'tkazishda fanning umumiyligi va maxsus talablarini inobatga olish lozim. Kar bolalarda talaffuz ko'nikmalari turli kompensator mexanizmlar asosida shakllantiriladi ya'ni saqlangan analizatorlarning imkoniyatlarini to'liq o'rganiladi, hamda saqlangan analizatorlar bir-birini to'ldirishi nazorat qilinadi. Kar o'quvchilar talaffuzga o'rganishda nutq organi harakati natijasida yuzaga keluvchi kinestetik sezgilar, shuningdek, eshitish va ko'rishga tayanishlari kerak bo'ladi. Talaffuzga o'rgatishda tanlangan nutq materiali o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi zarur. Didaktik tamoyil, ya'ni oddiydan murakkabga qarab borishga amal qilgan holda darsda ishni bo'g'in, so'z, jumla va bog'langan matn materiallarni (baland, past, sekin, pichirlab) gapirishni mashq qilishdan boshlash kerak. O'qitishda texnik vositalar, ya'ni ovoz kuchaytirgich apparatlaridan va ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish shart.

Kar bolalarning nutqini faqatgina maxsus metod, uslublar yordamida, maxsus yaratilgan sharoitda rivojlantirish mumkin. Saqlangan analizatorlardan harakat, taktil (teri sezgisi), vibratsiya (tebranish) sezgilardan foydalangan holda, maxsus o'qitish xamda barcha faoliyatlar jarayonida va kun davomida ularning nutqi rivojlanishi uchun sharoit yaratib beriladi. Nutq o'stirishda og'zaki, yozma, daktiil nutqdan foydalaniladi, daktiil nutq so'zli nutqni idrok etishga, hamda ta'limning dastlabki bosqichlarida nutqdan foydalanishga yordam beradi. Kar bola atrofidagilar bilan nutq o'stirish, talaffuzga o'rgatish va eshitish idrokini rivojlantirish mashg'ulotida muloqot qilishadi. Surdopedagogika fani nazariyasida sog' og'zaki metod tarafdarlari kar bolani avval nutqini o'stirib, keyin shu asosida uning umumiyligi rivojlanishini ta'minlash mumkin degan g'oyalarni ilgari surishgan. Bunda asosiy vaqt bola nutqini o'stirishga sarflanib, ta'lim jarayoni talaffuzga o'rgatish bilan chegaralanadi. Bola nutqini bevosita muloqot jarayonida rivojlantirish mumkin, chunki bu vaqtda so'zlar turli vaziyatlarda qo'llaniladi. To'g'ri va samarali tashkil etilgan turli xil faoliyatlar bolalar tafakkuri va nutqining shakllanishini ta'minlaydi. Bolalar faoliyatining rivojlanishi bilan ularning bilishga doir qiziqishlari va muloqotda bo'lismi ishtiyobi o'sib boradi va nutqning shakllanishiga yordam beradi. Turli faoliyatlar jarayonida o'zlashtirilgan so'z va iboralar bevosita lug'atni kengayishiga, grammatik jihatdan shakllanishiga xizmat qiladi. Jonli muloqotda qo'llaniladigan nutq, maxsus mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan nutqqa nisbatan puxtarloq o'zlashtiriladi. (B.D.Korsunskaya).

Maktabgacha yoshidagi kar bolalar ta'llimida og'zaki, yozma, daktiil nutq turlaridan foydalaniladi. Ta'limning dastlabki bosqichlarida, og'zaki nutq endigina shakllanib kelayotgan davrda bolalar imo-ishorali muloqotga to'liq o'tib ketishi xavfi tug'iladi. Imo-ishorali nutq bolalarning muloqotda bo'lismi ehtiyojini qondirgani uchun, so'zlashuv nutqining o'sishiga to'sqinlik qiladi, ularda yangi so'zlarni o'zlashtirish, lug'atni boyitish ishtiyobi so'nib boradi. Daktiil nutqning qo'llanishi bu ziddiyatlarga barham beradi. B.D.Korsunskaya, L.P.Noskova, L.A.Golovchislardan tomonidan daktiil nutq yordamidagi muloqotni o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, maxsus bolalar bog'chasiga kelgan kar bolalar yil davomida 150-200 ta so'zni o'zlashtirib, ta'limning ikkinchi yilida bu lug'at ularning nutqida faol ishlatala olishini ko'rsatdi. Yilning oxiriga kelib bolalar bir-ikki takrorlashdan so'ng so'zlarni eslab qoladi.

So'zlashuv nutqdan o'zaro muloqotda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan vaziyatlarda ularning nutqqa bo'lgan qiziqishi ortadi, bolalar buyumlar va harakatlar qanday atalishini so'rab olishga va o'z xohish-istiklarini so'zlar yordamida bayon etishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shodiyeva Q. "Nutq o'stirish uslubiyoti" Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarining maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun darslik — Toshkent: „O'qituvchi" NMIU, 2008. - 304 b.
2. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish.yordamchi maktablar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. (to'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ilm ziyo», 2 0 1 3 .-132b.
3. N. Dadaxujayeva, N. Nurmuxamedova, D. Yakubjanova, I. Nurmuxamedova
4. Surdopedagogika. Darslik Toshkent 2007;
5. Fayzieva U. va boshqalar. Kar bolalarni savodga o'rgatish. T. 2000 y.